

**PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI**

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi
Zikirova Xilola Kabiljanovna*

Annotation: mazkur maqolada prokuratura organlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari hamda ularning o`ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Tarixdan ma'lumki, bevosita prokuratura institutining vujudga kelish jarayoni Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo qilinishi va o'lkani boshqarishga doir tartiblar o'rnatilishi bilan bog'liqdir. Yurtimizda prokuratura organlarining shakllanish va rivojlanib borish davrini bir necha bosqichlarga ajratishimiz mumkin.

Prokuratura faoliyatining tashkil topib, rivojlanib borishi borasidagi birinchi bosqich sifatida Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasini bosib olgan davridan tortib to Chor Rossiyasining tugatilishigacha bo'lgan davrni ko'rsatishimiz mumkin. 1867-yilgi Turkiston o'lkasini boshqarishga oid vaqtinchalik Nizomning qabul qilinishida biz prokurorlik funksiyasining dastlabki alomatlarini ko'ramiz. Ushbu nizomga muvofiq, prokuratura mustaqil organ sifatida tashkil qilinmagan bo'lsada, prokurorlik funksiyasini olib borish general-gubernatorlarga yuklatilgan edi. Sirdaryo gubernatori, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshlig'i kabi mansabdor shaxslar bir vaqtning o'zida prokuror hisoblanib, ishlarni o'z xohishiga ko'ra tugatib yuborishlari yoki ma'muriy tartib-taomillarga ko'ra hal qilishlari ham mumkin edi. 1887-yilga kelib Sirdaryo, Marg'ilon va Samarcand viloyatlarining viloyat sudlari tarkibida viloyat prokuraturalari tashkil etilgan va ularda faoliyat olib boruvchi prokurorlar adliya vaziriga bo'y sunishgan. Bu prokurorlarning asosiy vazifasi Rossiya podsholigi qonunlarining o'lkamizda ijro qilinishi ustidan nazorat qilish bo'lgan. Ana shu taxlitda Turkistonda prokuratura institutining asosi paydo bo'la boshladi.

Ikkinci bosqichni Chor Rossiyasida inqilob sodir bo'lib, podsholik tugatilishi va Sovet davlatining vujudga kelishi hamda uning boshqaruvi tizimida shakllanib, faoliyat ko'rsatgan prokuratura bilan bog'liq davr deb hisoblaymiz. Inqilob natijasida Chor Rossiyasi tugatildi va Sudlar to'g'risidagi Dekret bilan podsholikning prokuraturasi ham tugatildi. Shu bilan to'rt yildan oshiqroq vaqt mobaynida prokuratura faoliyati qayta yo'lga qo'yilmadi. Bu orada sovet davlati tuzildi va mamlakatda qonuniylik ustidan biror organ yoki mansabdor shaxs nazorat qilishi lozimligi oydinlashdi.

1922-yilga kelib esa, Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasining davlat prokururasi haqidagi Nizom tasdiqlandi va shundan keyin markazda ham, boshqa hududlarda ham prokuratura tashkil qilina boshlandi. 1922-1924-yillar davomida

Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikasida ham prokuratura tashkil qilinib, uning ish yuritishi adliya xalq nazoratining prokuratura bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Keyinchalik, 1924-yilda O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi vujudga kelgach, 1926-yildan to 1931-yilgacha prokuratura tizimi faoliyatini tartibga soluvchi bir nechta nizomlar qabul qilinib, ularda ko‘zda tutilgan islohotlar natijasida, oxir-oqibat prokuratura bo‘lim emas, balki bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston SSR adliya xalq komissariati rahbarining o‘rnbosari hisoblangan respublika prokurori boshchilik qiladigan organga aylandi. Bu bosqichda eng ahamiyatli bo‘lgan voqelik 1933-yil dekabrda, ya’ni SSR Ittifoqi prokuraturasi to‘g‘risidagi Nizom[1] tasdiqlanib, ushbu nizom bilan prokuratura adliyadan mustaqil ish olib boruvchi SSSR Prokururasiga aylantirilganligi hisoblanadi. Nizomda prokuror nazorati institutiga keng vakolatlar berilishi belgilab qo‘yildi. 1936-yilga kelib esa ittifoq hamda avtonom respublikalar tarkibida bo‘lgan barcha prokuratura va tergov organlari ham adliya xalq nazorati bo‘ysunuvidan chiqarilib, SSSR prokuroriga bevosita bo‘ysunadigan qilindi.

Prokuratura organlari faoliyatining rivojlanishiga insoniyatning boshiga katta kulfatlar solgan ikkinchi jahon urushi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Prokuratura organlarining faoliyati 1941-yildan e’tiboran harbiylashtirildi. Ularning asosiy vazifasi harbiylashtirilgan davrdagi qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, jamoatchilikning tartibini, mehnat va davlat xizmati intizomini, harbiylar orasidagi qattiq tartib-intizomni ta’minalashdan hamda davlatning mulkini har qanday tajovuzlardan asrab-avaylash bo‘lgan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash bu davrda e’tibordan chetda qolgan masalalar sirasiga kiradi. Chunki, asosiy e’tibor urush maydonlariga: frontni askarlar bilan, qurol-yarog‘lar bilan, oziq-ovqat, kiyim-kechak hamda boshqa zarur narsalar bilan ta’minalashga qaratilgan edi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin mamlakat iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan qonunlarning ijrosini, mehnat intizomi va davlat xizmati bilan bog‘liq masalalarda asosan davlat manfaatlari ustunligini ta’minalashga qaratilgan normalar ijrosi ustidan nazorat qilish prokuratura organlarining asosiy vazifasi sifatida belgilandi. 1946-yil 19-martda SSSR Oliy Soveti prokuratura organlarining obro‘sini oshirish maqsadida SSSR prokuroriga Bosh prokuror maqomini berish to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi[2]. Bu bilan prokuraturaning davlat hayotida yuqori ahamiyatga ega organ ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Sobiq Ittifoq rahbariyatining, qolaversa partianing suyangan va ishonchli yordamchisi sifatida, ularning ko‘rsatmalarini qonunlardan ham ustun qo‘yib bajarishini inobatga olib bu organning maqomini yanada oshirishdan avvalo o‘sha rahbariyat manfaatdor edi. Shu boisdan ham prokuratura organlarining maqomini yanada rivojlantirish uchun bir qator islohotlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Prokuraturaning rivojlanish jarayonida muhim qadamlardan biri 1955-yil 24-mayda Ittifoqda prokuror nazorati to‘g‘risidagi

nizomning qabul qilinishi hisoblanadi. Unda davlatda qonuniylikning o'rni va unga og'ishmay amal qilinishini ta'minlashda prokuratura organlarining roli to'g'risidagi qoidalari, shuningdek prokurorlarning vazifalari, vakolatlari jinoyat va fuqarolik ish yurituvida aniqlangan qonun buzilish holatlariga prokuror ta'sir etish choralari belgilab qo'yildi. Nizomning ko'pgina qoidalari keyinchalik jinoyat va fuqarolik ish yurituvi asoslariga, axloq tuzatish qonunchiligiga kiritildi[3]. Nizomda yana shu narsaning shartligi ham belgilandiki, unga ko'ra, ittifoqdosh bo'lgan va avtonom respublikalarning qonunlarini mahalliy farqlikka, mahalliy ta'sirlardan qat'i nazar, aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilishi lozim edi.

Mazkur bosqichda prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomini yanada mustahkamlovchi voqeа sodir bo'ldi. Ya'ni O'zbekiston SSRning 1978-yilgi konstitutsiyasida prokuraturaga bag'ishlangan qoidalari birinchi marta alohida bob sifatida ajratib qo'yildi. Mazkur konstitutsiyaning XXI bobi "Prokuratura" deb nomlangan bo'lib, bu bobga 175-177-moddalar kiritilgan. 175-moddada O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mahalliy xalq deputatlari kengashining ijroiya va ma'muriy organlari, kolxozlar, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishining oliy nazoratini SSSR Bosh prokurori va O'zbekiston Respublikasi prokuroriga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori va viloyatlar prokurorlari SSSR Bosh prokurori tomonidan besh yil muddatga lavozimga tayinlanishi, tuman va shahar prokurorlarining esa O'zbekiston Respublikasi prokurori tomonidan tayinlanishi va SSSR Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanishi 176-moddada aks etgan. 177-moddada prokuratura organlarining mustaqilligi prinsipi namoyon bo'ladi. Unda qayd qilinishicha, prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday mahalliy organlardan mustaqil holda, faqat SSSR Bosh prokuroriga bo'ysunib amalga oshiradi[4] deyiladi. 1978-yilgi konstitutsiyaning prokuraturaga bag'ishlangan uchta moddasida 1937-yilgi konstitutsiyada belgilab berilgan qoidalarning aksariyat qismi takrorlanish holati bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan ushbu konstitutsiyada prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi, uning faoliyatining uslub va shakllari rivojlantirilib, davlat huquqiy institutlari orasidagi o'rni va mavqeyi yanada mustahkamlandi. Bunday takomillashuv asosan 175-moddada yuzaga chiqqan bo'lib, unda yangicha qarash ya'ni prokuror nazorati to'g'risidagi qoida to'g'ridan to'g'ri o'rnatilgan.

1979-yil 30-noyabrda SSSR Prokururasi to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilan ushbu bosqichni yakunlashimiz mumkin bo'ladi. Chunki, qonun to sobiq Ittifoq parchalanib ketgunga qadar amalda bo'lgan. Ushbu qonun prokuratura organlari tizimi faoliyatining huquqiy asoslari va prinsiplarini, asosiy yo'nalishlarini o'zida mujassam

etgan hamda prokuraturaga keng vakolatlar bergen qonun hisoblanadi. Shuningdek mazkur qonunni qabul qilish natijasida prokuratura avtoritar rejimning haqiqiy himoyachisi, davlatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi saqlanib qolishining kafolatlovchisi bo'lib qolishiga olib keldi.

Prokuratura faoliyatining rivojlanish bosqichlarida biz uchun eng muhim bo'lgan bosqich istiqlolga erishganimizdan keyingi yillar deb hisoblaymiz. Rasman Ittifoq bo'ysunuvida bo'lgan O'zbekiston SSR prokururasi O'zbekiston Respublikasi prokururasiga aylantirilgandan keyin prokuratura organlari tizimida ko'plab islohotlar olib borildi. Konstitutsiyamiz prokururaning davlat va jamiyat uchun qay darajada kerakli organ ekanini, uning qay tarzda faoliyat yuritishini umumiy tarzda belgilab beradi. 1992-yil 9-dekabrda esa prokuratura faoliyatining huquqiy negizlarini, faoliyat tartibini aniqlashtirib beruvchi "Prokuratura to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, eski tuzumdan holi bo'lgan, qonun ustuvorligini, inson va fuqarolar huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim shakllana boshladi. Ushbu qonun demokratik davlat qurish yo'lida e'tiborga olinadigan jihatlarni o'zida mujassam qilishi uchun bir necha bor o'zgarishlarga uchradi. Xususan, 1993, 1996, 1997 va 1999-yillarda mazkur qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Professor Akmal Saidovning fikricha, "Istiqlol yillarida prokuratura organlari taraqqiyotidagi ikki bosqichni ko'rsatish mumkin. Bunday bosqichga ajratishga yurtboshimizning (birinchi prezidentimizning – ta'kid muallifniki) "O'zbekiston 16 yillik taraqqiyot yo'li" ma'ruzasi asos bo'lib xizmat qiladi. O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq 1991-2000 yillar prokuratura organlari taraqqiyotining birinchi bosqichidir. Bu bosqich sovet prokururasi tizimidan demokratik huquqiy mustaqil prokuratura tizimiga o'tish davridir. Bu davrda O'zbekiston Respublikasi prokururasining konstitutsiyaviy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi.

2001-yildan boshlab prokuratura organlari taraqqiyotida yangi, ikkinchi bosqich boshlandi. Bu bosqichning asosiy mazmunini sud-huquq islohotlari tizimida hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda prokuratura organlarining o'rni va rolini oshirish tashkil etadi"[5].

2001-yil 29-avgustda "Prokuratura to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda xalqaro tajribani, standartlarni va zamonaviy huquqiy munosabatlarni hisobga olgan holda qabul qilindi. Ushbu qonun orqali prokururaning davlat boshqaruvi organlari orasida tutgan o'rni va rolining ahamiyatini anglab olishimiz mumkin. Qonunda prokururaning vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari, prokuratura organlari tizimi, prokurorlarning vakolatlari, prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari hamda prokururaning funksiyalari aniq ishlashi bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. Davlatning har bir sohasida qonuniylikning ta'minlanishi borasida prokururaning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, asosan, president farmon va

qarorlariga muvofiq har bir soha va tarmoqda qonunlarga amal qilinishi, subyektlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida prokuratura organlari faoliyatini kuchaytirish ko'zda tutilgan edi. Demak, prokuraturaning faoliyat doirasi nihoyatda keng ko'lamli bo'lib, prokuratura organlariga yuklatilgan vazifalar ham shunga yarasha juda mashaqqatli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan professor A. Saidov fikrini quvvatlagan va unga qo'shimcha kiritgan holda, so'nggi besh yil mobaynida prokuratura organlari tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni, islohotlarni inobatga olib, prokuratura taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganini e'tirof qilishimiz mumkin. Mazkur fikrlarning isboti sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 21-oktabrda 4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi[6] Farmonning imzolanishini va uning faqat prokuratura organlari faoliyatining takomillashuvida emas, umuman sud-huquq sohasining rivojlanishida katta islohotlarning yangi bosqichini boshlab bergenligi bilan ifoda qilishimiz mumkin.

Prokuror nazorati instituti davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, umuman barcha sohalarida qonuniylikni ta'minlash, huquqlarning, erkinliklarning va manfaatlarning oyoqosti qilinmasligi uchun juda kerakli bo'lgan nazorat instituti sanaladi. Davlatimiz tarixida bu organning tashkil topish jarayonini o'rganish mobaynida uning Chor Rossiyasi istilosi bilan bog'liq ekanligini, aynan prokuratura deb nomlanuvchi tizimning kirib kelishi istilodan keyingi davrlarda sodir bo'lganligini bilib olamiz. Prokurorlik lavozimiga rus millatiga mansub bo'lgan va xristian diniga e'tiqod qiluvchi shaxslarning tayinlanishi hamda ularning mahalliy aholi tilini, urfatolarini, an'analarini, necha ming yillik qadriyatlarini bilmasligi, ularni toptashi aholining noroziliklariga sabab bo'lgan va mahalliy aholida o'zlariga nisbatan nafratning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. О.М. Мадалиев. Прокурор назорати муаммолари фанидан ўкув қўлланма.— Т.:ТДЮИ нашриёти, 2006. 16 б.
2. Prokuror nazorati / D.Y. Xabibullayev, F.B. Ibratova va b. – Toshkent: TDYU, 2019. 17 б
3. Рустамбаев М.Х., Тухташева У.А. Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар: Дарслик. 2-жилдли. 2-жилд. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. – 110 б.
4. Конституция (основной закон). УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ РЕСПУБЛИКИ. "Узбекистан". Ташкент-1979
5. Saidov A.X. Iстиқlol ва прокуратура ҳуқуқий давлат органлари тизимида // Ҳукуқ. 2009 йил 3 сентябрь.
6. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL. <https://lex.uz/docs/-3050491>.